

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING ROLI VA AHAMIYATI

Xamidjonov Shermurod Xomidjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU),

Jahon iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuvining institutsional asoslarini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tahlil etilgan. Tadbirkorlik tuzilmalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini faollashtirish, innovatsion salohiyatni ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini keskin oshirish, ya'ni tashqi savdo faoliyatini chuqurlashtirish va jarayonlarni jadallashtirish orqali strategik jihatdan hal etilishi mumkin bo'lgan innovatsiyalarni rag'batlantirishdan iqtisodiy o'sishga o'tishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, integratsiya, moliya, jahon, ittifoq, o'sish, tovar, strategiya, eksport, import.

Annotation

The article analyzes the wide-scale measures aimed at forming the institutional foundations of the integration of the national economy into the world market in accordance with the Action Strategy on the five priority directions of the development of the Republic of Uzbekistan. It is important to switch from stimulating innovation to economic growth, which can be solved strategically by activating the foreign economic activity of business structures, dramatically increasing the

opportunities to realize innovative potential, that is, by deepening foreign trade activities and accelerating processes. attention is being paid.

Key words: economy, integration, finance, world, union, growth, commodity, strategy, export, import.

1991-yilda SSSR parchalanishi bilan barcha sobiq ittifoq respublikalari, jumladan, O‘zbekiston ham nihoyatda og‘ir ahvolga tushib qoldi. Butun postsoviet hududida iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning markazlashtirilgan tizimi yo‘q qilindi, o‘nlab yillar davomida rivojlangan tovar va pul muomalasi tizimi yo‘q qilindi, bu butun SSSRning parchalanishini anglatadi.

Ushbu burilish natijasida O‘zbekiston nafaqat sobiq ittifoq respublikalaridagi an’anaviy iste’molchilari va yetkazib beruvchilarini yo‘qotdi, balki Rossiya va boshqa MDH davlatlarining moliya tizimidan chetda qoldi.¹

Buning oqibatlari judayam o‘ylantiradigan darajada edi: qayta ishslash sanoati korxonalari faoliyati buzildi va ba’zi joylarda butunlay to‘xtatildi, energiya infratuzilmasi va suv xo‘jaligini boshqarish tizimi (dastlab mintaqaviy yoki umumittifoq sifatida yaratilgan). tanazzulga yuz tuta boshladi, qishloq xo‘jaligi va qishloq aholisi butun mamlakat bo‘ylab katta zarar ko‘rdi (masalan, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti ularni sotishning an’anaviy bozorlari bo‘lganligi sababli 5-6 marta keskin kamaydi). jahon bozoridagi shunga o‘xhash mahsulotlar bilan to‘ldirilgan), aholining barcha qatlamlarining ijtimoiy ta’minoti keskin kamaydi. O‘zbekiston aslida beqarorlik yoqasida edi.

Ammo mamlakat bu qiyin sinovdan o‘tdi. Va bu holda, bunga ko‘p jihatdan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimlarni isloh qilishda davlatning etakchi rolini yuklash yordam bergenligini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. O‘zbekiston 2001 yilga kelib MDH davlatlari orasida yalpi ichki mahsuloti birinchi bo‘lib 1991 yildagi

¹ Z.Yo’ldoshev , X.Xalilova “Milliy va jahon iqtisodiyoti” (o’quv qo’llanma) Toshkent 2013

ko'rsatkichdan oshib ketgani ko'p narsadan dalolat beradi va so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish 8-9 foiz darajasida (inqiroz davrida biroz pasayib ketgan bo'lsa) xarakterlanadi.

Shunday qilib mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.¹

2017-yilda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish" ustuvor yo'nalishini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xuquqlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, tadbirkorlik tuzilmalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini jonlantirish Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, iqtisodiyotning ushbu tarmog'ini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini yaratishga qaratilgan institutsional qurilishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratish lozim.²

2017-yil 1-avgustdan boshlab tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan tushgan valyuta tushumining 25 foizini majburiy sotish talabi bekor qilindi. Bundan kelib chiqadiki O'zbekiston Respublikasi xududida bundan buyon tadbitkorlarga imkoniyatlarning yana bir yo'nalishi ochildi va bu albatta o'zining foydasini bermay qolmadi.

¹ <https://lex.uz/docs/-3107036>

² <https://lex.uz/docs/-3307879>

Raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2022-yilning iyun-dekabr holatiga ko'ra O'zbekistonda import hajmi eksport hajmiga nisbatan anchagina oshganligini kuzatamiz. Bu davr ichida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi \$23,2 mlrd.ga tengligi kuzatildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisabtan \$4.6 mlrd.ga oshgan.¹

Tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport \$9.6 mlrd.ni tashkil etdi. Bunda:

Manhsulotlar - \$6.9 mlrd.

Xizmatlar - \$2.5 mlrd. ga teng bo'lgan.

Yuqorida aytilgandek bu davrda import eksportga nisabtan sezilarli, unga \$14.7 mlrd. sarflangan.

Bunda:

Mahsulotlar - \$12,7 mlrd.

Xizmatlar – \$2 mlrd. ga tengligi kuzatildi

O'zbekiston jahon iqtisodiyotida borgan sari o'z ulushi hajmini oshirib bormoqda. O'zbekiston endilikda rivojlangan davlatlar singari ulkan eksport mahsulotlarini onlayn savdo orqali ham yo'lga qo'ymoqda. Alibabada O'zbekiston tadbirkorlari tomonidan 2020-yil sentabr oyida \$67 mlnlik mahsulot eksport qilindi. O'sha yilning oxirigacha eksportga yo'naltirilgan tovar pozitsiyalari soni 300 taga yetkazilishi reja qilingan edi. Natijada O'zbekiston jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lib, tijorat saytida milliy bilimga ega bo'lgan Rossiya va Qozog'istondan keyin III MDH davlati bo'ldi.²

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi ichki eksport va import hajmi bilan xam xisoblash mumkin. Ammo bu ko'rsatkichlarni yanada aniqroq o'rghanish orqali xalqaro munosabatlarda O'zbekistonning o'rnini ham ko'rishimiz mumkin.

Ko'plab yirik davlatlar bilan eksport va import mahsulotlarini almashishni allaqachon yo'lga qo'ygan. Xalqaro munosabatlardan qanchalik yaxshi o'rnatilganini butun dunyo bo'yicha nafaqat tashqi savdo balki xalqaro munosabatlardan eng chigallashgan davr misolida ko'rib chiqamiz. 2020-yil dunyo bo'yicha karantin

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/22/trade/>

² <http://www.uzbekistan.org.ua/uz/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati/o-zbekiston-va-xalqaro-tashkilotlar.html>

o‘rnatilgan vaqtida O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi \$36,3 mlrd. ni tashkil etdi . Albatta bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan 13,1% ga pasaygan ammo baribir bu davr uchun yaxshi ko‘rsatkich deyish mumkin. Asosiy sherik davlatlarning hissalarini ko‘rib chiqsak:

1-jadval Asosiy sherik davlatlarning hissasi (2020-yil)

Nº	Davlat	Ulushi(foizda)
1	Xitoy Xalq Respublikasi	17.7
2	Rossiya Federatsiyasi	15.5
3	Qozog‘iston	8,3
4	Koreya Respublikasi	5.9
5	Turkiya Respublikasi	5.8
6	Qirg‘iziston	2.5
7	Germaniya	2,3

2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo‘yicha O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 50 mlrd AQSH dollarini tashkil etganini aytib o‘tishimiz xam 2 yil orasida tashqi savdo aylanmasi qanchalik o‘sganini ko‘rishimiz mumkin va uni quyidagi infografikada biz eksport xamda import ko‘rsatgichlarini xam ko‘rishimiz mumkin.¹

2-jadval O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi (2022-yil)

Nº	Nomi	Ulushi (AQSh dollarida)
1	Eksport	19,3
2	Tovarlar	11
3	Xizmatlar	4
4	Oltin	4.3
5	Import	30.7
6	Tovarlar	28,2
7	Xizmatlar	2,5

Bunda O‘zbekiston jahoning 204 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Tashqi savdo aylanmaning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (18,6 foiz), XXR (17,8 foiz), Qozog‘iston (9,2 foiz), Turkiya (6,4 foiz), Koreya

¹ <https://uzreport.news/economy/2022-yilda-o-zbekistonning-tashqi-savdo-aylanmasi-50-mlrd-dollarga-yetdi>

Respublikasi (4,7 foiz), Qirg'iz Respublikasi (2,5 foiz) va Germaniya (2,3 foiz) bilan qayd etilganligini xam alohida qayd etib o'tisshimiz joizdir.¹

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan O'zbekistonning jahon bozorida iqtisodiy o'sish suratidan xam biz bugungi kundagi jahon iqtisodiyotidagi yurtimizning sezilarli darajada o'sishini va jahon bozoriga qay darajada tezlik bilan integratsiyalashuv jarayonini xam shiddat bilan amalga osshayotganini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Yo'ldoshev , X.Xalilova "Milliy va jahon iqtisodiyoti" (o'quv qo'llanma)
Toshkent 2013
- 2.<http://www.uzbekistan.org.ua/uz/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati/ozbekiston-va-xalqaro-tashkilotlar.html>
- 3.<https://uzreport.news/economy/2022-yilda-o-zbekistonning-tashqi-savdo-aylanmasi-50-mlrd-dollarga-yetdi>
4. Постановление Президента Республики Узбекистан от 13.09.2017 г. №ПП-3272 «О мерах по дальнейшему совершенствованию денежно-кредитной политики» // Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017, №38, ст.1030

¹ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-jahonning-204-mamlakati-bilan-savdo-aloqalarini-amalga-oshirgan>